

FAVQULODDA VAZIYATLARDA VETERINARIYA NAZORATI XIZMATI VA  
ULARNING TURLARI

Arziyev Xidir Yoldashovich

*Katta oqutuvchi*

Allambergenov Dawletbay Muxtar uli

*Talaba.*

Arislanbekov Ilhambek

*Talaba*

Abatbaeva Aygul

*Talaba*

*Samarqand Davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti nukus filiali*

[Dauletbayallambergeov09@gmail.com](mailto:Dauletbayallambergeov09@gmail.com)

**Annotatsiya:** Davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" Hukumat qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, 2021-yil 1-yanvardan boshlab:- O'zbekiston hududiga davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni olib kirishga ularni ishlab chiqaradigan, qayta ishlaydigan va saqlaydigan eksport qiluvchi tashkilotlar va shaxslar reyestriga kiritilgan eksport qiluvchi tashkilotlar va shaxslarga ruxsat beriladi;- davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni olib kirishga veterinariya ruxsatnomasi uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari (223 ming so'm) miqdorida yig'im undiriladi.Ushbu tartib favqulodda vaziyatlarda, xalqaro ko'rgazmalarda qatnashishda, laboratoriya tahlillari uchun namunalarda, shuningdek, diplomatik korpus, o'quv muassasalari, ilmiy va davlat maqsadlari uchun olib kelinadigan davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

**Tayanch so'zlar:** favqulodda holat, hayvonlar hayotini muxofaza qilish;texnogen; tabiiy tUSDagi favqulodda vaziyatlar.

**Kirich:** Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining kuchlari nafaqat respublikamiz hududlarida sodir bo'lgan noxush vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda, balki qo'shni va uzoq xorijiy mamlakatlarda yuz bergan favqulodda vaziyatlarda ham insonparvarlik burchlarini ko'rsatish mumkin.Bunga misol qilib qardosh Turkiya davlatida yuz bergan favqulodda vaziyatni va u yerda respublikamiz favqulodda vaziyat vazirligi tomonidan insonparvarlik ishlarini, qutqaruv ishlarini amalga oshirganini ko'rsatish mumkin. Bunday ishlarni amalga oshirish uchun ular albatta taktik tayyorgarliklardan o'tishlari, doimo jangovar holatda bo'lishlari uchun o'quv-mashq amaliyotlarida murakkab vazifa va topshiriqlarni amalga oshirishlari zarur.

Tinchlik va urush davrida favqulodda vaziyatlarda qishloq xo'jalik hayvonlarini himoya qilishning ikki usuli mavjud: 1- hayvonlar guruhini himoya qilish ; 2-shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish. Guruhni himoya qilishi hayvonlarning butun guruhlariga zarar yetishining oldini olishga qaratilgan. Ammo hayvonlar uchun mo'ljallangan xonalar va

hududning tabiiy himoya xususiyatlaridan foydalaniladi. Bu usul eng samarali hisoblanib quydagilarni o'z ichiga oladi. -chorvachilik binolaridan tegishli tayyorgarlikdan o'tkazish va ozuqa zaxirasini yatatgandan keyin foydalanish; -hayvonlarni evakuatsiya qilish; -davolash; - hashoratlar chaqishi, yuqumli kasalliklar patogenlarini tashuvchilardan profilaktik davolash; -radioaktiv moddalarni tanadan tez chiqarish maqsadida hayvonlarni antinurlantiruvchi dorilardan foynalish va kompleksonlar berish. Tabiiy ofatlar: -suv toshqini paytida qishloq xo'jalik hayvonlarini zudlik bilan haydab nisbatan baland joylarga olib chiqish talab qilinadi. Hayvonlarni evakuatsiya qilish rejasi tinchlik paytda ishlab chiqilishi va barcha xodimlar tashgan bo'lishi zarur; suv bosish xavfi katta bo'lsa transportlardan foydalaniladi;evakuatsiya paytida hayvonlarni oziqlantirish ishlari tashkillashtirilishi zarur. kutilyotganda yaylovdan hayvonlarni yaqin binolarga, hovlilarga joylashtirish, bunday imkoniyat bo'lmaganda yer relefining pana joylariga haydash lozim bo'ladi. Bunday vaziyatlar kutulishi mumkin joylarda panalash joylariga ozuqa zaxiralari, suv zaxirasi yaratiladi.Shu bilan birgalikda sigirlarni sog'im, oziqlantirish, axlatlarini tozalash ishlari rejalashtiriladi. Bundan tashqari cho'ponlar uchun ham dam olish xonasi bo'lishi va bu xonada o't o'chirish vositalari, tibbiy aptechka bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

Radioaktiv changlar bilan zararlanishi: Bunday vaziyatlarda hayvonlar binolardan chiqarilmasdan eshik va derazalar bir necha qavat somon va ko'mir kukuni aralashmasi qoplarga solinib berkitiladi. Radiatsiya xavfi bo'lganda binolar havoni tozalovchi, filtrli ventilyatsiya qurilmasi bilan jihozlanishi 15 kunga yetadigan toza suv va ozuqa zaxirasi jamg'arib qo'yiladi. Bino devorlari beton, oxak aralashmasi bilan suvalishi, tuproq bilan imkon darajasida devorlar ko'milishi, ortiqcha oynalar va tuynuklar g'isht bilan germetik yopilishi kerak. Ozuqa zaxirasi miqdoriga qarab: xashak 5-6 kg/sutka, suv 20-30 l/sutka qilib belgilanadi. Xizmat ko'rsatuvchi xodimlar maksimal darajada kamaytiriladi. Bu holat maxsus xizmat hodimlari tomonidan radiatsiya nazorati to'g'risida ma'lumot berilganiga qarab o'zgarishi mumkin. XULOSA Favqulodda vaziyatlar kutilmagan paytda sodir bo'lishini inobatga olgan holda yuqorida sanab o'tilgan chora tadbirlarni tinchlik paytida hozirlab qo'yishni talab etiladi. Shundagina chorva hayvonlarini hayotini, sog'ligini saqlab qolishga erishish mumkin. Chunki ular havoda uchib kelayotgan jismlardan, ko'plab tushayotgan tuzilmalardan himoyalana olmay qolishi mumkin. Agar xavfsiz joyga ko'chirish imkoni bo'lmasa tor va kichik o'lchamli xonada xavfsizroq saqlaganligi uchun u yerlarga ko'chirish zarur bo'ladi. Favqulodda vaziyatlarda hayvonlar odamlar bilan birga ko'chirilishi zarur. Chunki odamlarning hayoti uchun zarur ozuqalarni hayvonlardan olishi mumkinligini inobatga olsak ularni albatta asrashimiz zarur. Tinchlik va urush davrida favqulodda vaziyatlarda qishloq xo'jalik hayvonlarini himoya qilishning ikki usuli mavjud: 1- hayvonlar guruhini himoya qilish ; 2-shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish. Guruhni himoya qilishi hayvonlarning butun guruhlariga zarar yetishining oldini olishga qaratilgan. Ammo hayvonlar uchun mo'ljallangan xonalar va hududning tabiiy himoya xususiyatlaridan foydalaniladi. Bu usul eng samarali hisoblanib quydagilarni o'z ichiga oladi. -chorvachilik binolaridan tegishli tayyorgarlikdan o'tkazish va ozuqa zaxirasini yatatgandan keyin foydalanish; -hayvonlarni evakuatsiya qilish; -davolash; - hashoratlar chaqishi, yuqumli kasalliklar patogenlarini tashuvchilardan profilaktik davolash; -radioaktiv moddalarni

tanadan tez chiqarish maqsadida hayvonlarni antinurlantiruvchi dorilardan foylanalish va komplekslar berish.

Har qancha oldini olinishiga qaramasdan favqulodda vaziyatlar sodir bo'lib turar ekan, ularni bartaraf etish uchun ma'lum kuch va vositalar zarur bo'ladi. uchun o'quv-mashq amaliyotlarida murakkab vazifa va topshiriqlarni amalga Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda, sodir bo'lgan favqulodda vaziyatning turi, xususiyatiga muvofiq maxsus kuchlar jalb qilinadi. Bunday vaziyatlarda favqulodda vaziyat vaqti va boshqa xususiyatlarga alohida e'tibor berilib, zudlik bilan ishga kirishiladi. Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining kuchlari nafaqat respublikamiz hududlarida sodir bo'lgan noxush vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda, balki qo'shni va uzoq xorijiy mamlakatlarda yuz bergan favqulodda vaziyatlarda ham insonparvarlik burchlarini ko'rsatish mumkin. Bunga misol qilib qardosh Turkiya davlatida yuz bergan favqulodda vaziyatni va u yerda respublikamiz favqulodda vaziyat vazirligi tomonidan insonparvarlik ishlarini, qutqaruv ishlarini amalga oshirganini ko'rsatish mumkin. Bunday ishlarni amalga oshirish uchun ular albatta taktik tayyorgarliklardan o'tishlari, doimo jangovar holatda bo'lishlari oshirishlari zarur.

Veterinariya-sanitariya nazorati — chorvachilik fermalari, parrandachilik f-kalari, go'shtsut kombinatlari, hayvonot mahsulotlari va xom ashyosini tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va tashish bilan shug'ullanadigan korxonalarining veterinariya-sanitariya holati ustidan davlat va i.ch. nazorati tizimi. Turli kasalliklarning oldini olishda, hayvon va parrandalarni so'yishda, mahsulotlarni tashishda, hayvonlar, hayvonlardan olingan mahsulotlar va xom ashyoni eksport-import va ular bilan savdo qilishda V.-s.n. g'oyat katta ahamiyatga ega. Nazorat tadbirlari aholini yuqadigan kasalliklardan asrash, hayvonlar o'rtasida yuqumli kasallik paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida o'tkaziladi. V.-s. n.ning vazifasi go'shtni qayta ishlash korxonalariga veterinariya xizmati ko'rsatish, dehqon bozorlarida mahsulotlarni tekshirib turish, hayvonlarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish, ularning mahsulotlarini chetga chiqarish va keltirish ustidan nazorat o'rnatishdan iborat. V.-s. n. mamlakatimizdagi hamma veterinariya muassasalari, jumladan go'shtsut va b. oziq-ovqatlarni nazorat qilish st-yalari, teri, jun mahsulotlarini tekshirish lab.lari, davlat chegara punktlari, go'sht mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari qoshidagi i. ch.-veterinariya nazorat bo'limi tomonidan olib boriladi. V.-s. n.ning asosiy tartibi O'zbekistan Respublikasining "Veterinariya to'g'risida" qonunida (1993 y. 3 sent.) batafsil belgilangan. O'zbekistan Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi Veterinariya bosh boshqarmasi mamlakatda V.-s. n.ga rahbarlikni amalga oshiradigan markaziy organ bo'lib, uning ko'rsatmalari shu sohadagi idora va korxonalar uchun so'zsiz bajarilishi lozim. Davlat Veterinariya xizmatini Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi, viloyatlar va Toshkent sh. davlat veterinariya boshqarmalari, tumanlar, viloyat va tuman bo'ysunuvidagi shaharlarning davlat veterinariya bo'limlari, ular qaramog'idagi xayvonlar kasalliklariga qarshi kurash stansiyalari (tuman veterinariya stansiyalari), diagnostika markazlari, veterinariya shifoxonalari, lab.lari, ekspeditsiyalari, hayvonlar kasalliklariga qarshi kurash qismlari,

dehqon bozorlaridagi veterinariya-sanitariya ekspertizasi lab.lari va davlat veterinariya tarmog'ining boshqa muassasalari amalga oshiradi.

Idoraviy Veterinariya xizmati vazirlik, idora, korxonalar, muassasa va tashkilotlar tasarrufida bo'lib, veterinariya mutaxassislari o'z vakolatlarini doirasida hayvonlarga idoraviy veterinariya nazorati va Veterinariya xizmati ko'rsatishni amalga oshiradi. Xususiyl Veterinariya xizmati bilan veterinariya vrachi bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va b., shuningdek veterinariya feldsherlari va texniklari veterinariya vrachi nazoratida shug'ullanishi mumkin.

Respublikadagi chorva va uy hayvonlarida 80 dan ortiq tur va yuqumli, gijja kasalliklari uchraydi. Ularga qarshi kurashda oldini olish tadbirlari, emlash, gijjasizlantirish ishlari olib boriladi. Shunga qaramay suturish, leptospiroz, salmonellyoz, teylerioz, qorason, fasallyoz, gemonxoz, senuroz, exinokokkoz, manezioz kabi kasalliklar vaqt-vaqti bilan chorvaga katta ziyon yetkazadi. Keyingi yillarda respublikada qoramollar o'lati, otlar manqasi, plevropnevmoniya kabi chorva mollariga qiron keltiradigan kasalliklar kuzatilmadi.

Respublika davlat Veterinariya xizmati tarmopsha 2504 nafar veterinariya vrachlari, 2486 nafar veterinariya feldsherlari; idoraviy Veterinariya xizmati tarmog'ida 1719 nafar veterinariya vrachlari va 2872 nafar veterinariya feldsherlari, xususiyl Veterinariya xizmati tarmog'ida esa 1231 nafar veterinariya mutaxassislari ishlaydi. Davlat Veterinariya xizmati tizimida 13 viloyat veterinariya bo'limi, 165 ta tuman veterinariya shoxobchalari, 13 viloyat veterinariya lab., 126 tuman va tumanlararo veterinariya lab.lari, 246 veterinariya-sanitariya ekspertizasi lab.lari, 55 uchastka veterinariya shifoxonalari mavjud

**Veterinariya xizmati** — mamlakat, hududiy zonalar yoki xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlarida, korxonalar, transport, davlat chegarasi, qurolli kuchlarda jami veterinariya tadbirlarini amalga oshiradigan veterinariya tashkilotlari va muassasalari majmui. Veterinariya xizmati mamlakatda hayvonlar (shu jumladan parranda, mo'ynali hayvonlar, baliklar, asalarilar) kasalliklarining oldini olish va ularni yo'qotish bilan shug'ullanadi; qishloq xo'jaligi hayvonlarining mahsuldorligini oshirishga karatilgan veterinariya tadbirlari o'tkazilishini tashkil etadi; veterinariya-sanitariya jihatidan xatarsiz hayvonot mahsulotlari va xom ashyo tayyorlanishini ta'minlaydi, aholini odam va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan kasalliklar (zooantroponozlar)dan, mamlakat hududini boshqa davlatlardan hayvonlarning yuqumli kasalliklari kirib kelishidan muhofaza qiladi. Bu vazifalarni bajarish uchun veterinariya ishiga rahbarlik va veterinariya tadbirlarini tashkil etish mamlakat miqyosida markazlashtirilgan holda olib boriladi.

Hayvonlarni kasalliklardan muhofaza qilish va davolash ishlari ularni xonakilashtirish davridan boshlangan. Davolash bilan cho'pon, otboqar va b. chorvadorlar shug'ullangan. 1929-yil ochilgan Samarqand qishloq xo'jaligi institutida veterinariya mutaxassislari tayyorlana boshladi. Viloyatlardagi qishloq xo'jaligi va zooveterinariya texnikumlarida veterinariya feldsherlari tayyorlandi. 1959-yil Samarqand viloyatida biologik preparatlar tayyorlaydigan kombinat ishga tushiriddi. 1976-yil Samarqandda zararli bo'g'imoyoklilarga qarshi kurash O'rta Osiyo lab. tashkil etildi (O'zbekiston mustaqillikka erishgach, u

O'zbekiston veterinariya-sanitariyasi va akarologiyasi ilmiy tadqiqot institutiga aylantirildi).

O'zbekistan Respublikasining "Veterinariya to'g'risida"gi qonuni (1993-yil 3 sentabr)ga binoan mamlakatda davlat veterinariyasi, idoraviy va xususiy Veterinariya xizmati tashkil topdi.

Xulosa: Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda, sodir bo'lgan favqulodda vaziyatning turi, xususiyatiga muvofiq maxsus kuchlar jalb qilinadi. Bunday vaziyatlarda favqulodda vaziyat vaqti va boshqa xususiyatlarga alohida e'tibor berilib, zudlik bilan ishga kirishiladi. Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining kuchlari nafaqat respublikamiz hududlarida sodir bo'lgan noxush vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda, balki qo'shni va uzoq xorijiy mamlakatlarda yuz bergan favqulodda vaziyatlarda ham insonparvarlik burchlarini ko'rsatish mumkin. Bunga misol qilib qardosh Turkiya davlatida yuz bergan favqulodda vaziyatni va u yerda respublikamiz favqulodda vaziyat vazirligi tomonidan insonparvarlik ishlarini, qutqaruv ishlarini amalga oshirganini ko'rsatish mumkin. Bunday ishlarni amalga oshirish uchun ular albatta taktik tayyorgarliklardan o'tishlari, doimo jangovar holatda bo'lishlari oshirishlari zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun. 1999 yil 20 avgust.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi qarori. 1996- yil 11-aprelda qabul qilingan 143-sonli.

3. O'zbekiston Respublikasida odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurashishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida (1996 yil 18 yanvar, 32-sonli);

4. "Favqulodda vaziyatlar davlat tizimining favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalari" (ma'ruza matni) Toshkent, FMI, 2000 yil.

5. A.Q.Nurxo'jaev, M.YU.YUnusov, I.X.Xabibullaev "Favqulodda vaziyatlar va muhofazasi tadbirlari", Toshkent, 2001 yil.

6. A. Nurxodjaev. "Tabiiy ofatlar, hosil bo'lishi, tasnifi, aholi va hududlarni muhofaza qilish qoidalari", Toshkent, FMI, 2006 yil.

Saytlar: 1. w.w.w vza.uz favqulodda vaziyatlarda nima qilishni bilasizmi.

2. student.net защита сельскохозяйственных животных

3. ru.bellaribriards.cz готовность домашних животных к стихийным бедствиям